

## ILM-FANNING JAMIIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI, FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

*SamDCHTI Narpay xorijiy tillar fakululteti  
 Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi  
 2-bosqich 2302-guruh talabasi  
 Po'latova Shaxnoza Vohid qizi  
 Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'ruf*

**Annotatsiya:** Ilm-fan jamiyat taraqqiyotining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarda yangi g'oyalar, texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish orqali jamiyatni rivojlantiradi. Ilm-fan jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotida ham o'z o'rnnini egallaydi, chunki ilm-fan orqali insoniyat o'z bilimi va ko'nikmalarini kengaytiradi, yangi kashfiyotlar amalga oshiriladi, bu esa jamiyatda barqarorlik, farovonlik va taraqqiyotga olib keladi. Ushbu maqolamda men ilm-fan taraqqiyotda tutgan o'rni va fanining maqsad, vazifalarini keng qamrovda yoritib bermoqchiman.

**Kalit so'zlar:** Ilm-fan, texnologiyalar, madaniyat, taraqqiyotidagi o'rni, raqobatdoshlik, jamiyat.

### THE ROLE OF SCIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY, THE GOALS AND TASKS OF SCIENCE

**Abstract:** Science is one of the important foundations of society's development. It develops society by creating new ideas, technologies and innovations in social, economic, cultural and political spheres. Science also takes its place in the spiritual and cultural development of society, because through science, humanity expands its knowledge and skills, new discoveries are made, which leads to stability, prosperity and progress in society.

**Key words:** Science, technologies, culture, place in development, competitiveness, society.

Fan bu o'zining tarkibida tabiatning obyektiv qonunlari haqida doimiy Rivojlanishdagi ilmiy bilimlar tizimi, ushbu tizimni yaratish va rivojlanirishga yo'naltirilgan odamlarning ilmiy faoliyati, jamiyat va insoniyat Ongi va ilmiy faoliyat yuritishni ta'minlovchi tashkilotlarni mujassamlashtirilgan yaxlit ijtimoiy tizimni ifodalaydi. Ilm-fan jamiyat taraqqiyotining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarda yangi g'oyalar, texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish orqali jamiyatni rivojlantiradi. Ilm-fan jamiyatning ma'naviy

va madaniy taraqqiyotida ham o‘z o‘rnini egallaydi, chunki ilm-fan orqali insoniyat o‘z bilimi va ko‘nikmalarini kengaytiradi, yangi kashfiyotlar amalga oshiriladi, bu esa jamiyatda barqarorlik, farovonlik va taraqqiyotga olib keladir.

Fanning tarkibiy qismi quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda aks ettiriladi:

Ilmiy bilimlar tizimi, ilmiy faoliyat va ilmiy muassasa.

Ilmiy bilimlar tizimi quyidagi belgilarga ega bo‘lishi kerak: hammabopligi, ilmiy dalillarning haqiqiyligi (tekshirilganligi), voqeliklarni amalga Oshira olinishligi, bilimlar tizimini turg‘unligi (barhayotliligi).

Ilmiy bilimlar tizimi quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Bilim tarmoqlari bo‘yicha: tabiiy fanlar, texnik fanlar, jamiyat fanlari;
- Ilmiy fanlar bo‘yicha: matematika, fizika, kimyo, astronomiya, energetika va h.k

Ilmiy faoliyat natijasi: nashr etish (kitob, maqola) mualliflik guvohnomasi, patent, konstruktorlik ishlama va h.k.

Ilmiy faoliyat natijasi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanuvchi yangi

Ilmiy bilimlarni olishga, o‘zlashtirishga qayta ishlashga va sistemaga tushirishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat (ilmiy ish yoki ilmiy mehnat):

- Yangiligi va haqiqiyligi, ehtimollik xarakteri va tavakkalligi (risk),

Ilmiy natijalarни ishonchhliliги va isbotlanishhliliги.

Ilmiy faoliyat quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Maqsadi bo‘yicha: nazariyani rivojlantirish, yangi texnika va texnologiya yaratish, mavjud texnika va texnologiyalarni takomillashtirish;
- Ilmiy ish turlari bo‘yicha: fundamental, amaliy tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar;
- Ilmiy tadqiqot ishi ko‘lami bo‘yicha: fandagi biror yo‘nalish, ilmiy

Muammo, ilmiy mavzu;

- d) Tadqiqot uslubi bo‘yicha: nazorat, eksperimental va aralash tadqiqotlar;

Ilmiy muassasa ilmiy xodimlar, ilmiy faoliyat yuritish vositalari (ilmiy uskuna, qurilma, pribor va h.k.), ma’lumot materiallari, ilmiy faoliyat obyekti va ilmiy faoliyat yuritish uchun kerakli shart-sharoitlarga ega bo‘lishi kerak.

Fan har bir mamlakat iqtisodiyotini va jamiyat taraqqiyotini negizi hisoblanuvchi ilmiy texnik taraqqiyot rivojlanishini ta’minlovchi intellectual boylik (kuch) hisoblanadi. Uzoq o‘tmishda yashab ijod qilgan ajdodlarimiz jahon sivilizatsiyasiga, fanning rivojlanishiga katta hissalarini qo‘sghanliklarini yodimizda doimo saqlashimiz kerak. Qadim Turkiston eli o‘zining beyuk siymolari va ko‘p qirrali ijodi bilan fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘sghan buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Ilm-fan jamiyatning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat yangi bilimlar va texnologiyalar yaratish, balki jamiyatni yanada barqaror, farovon va taraqqiy etgan qilishga yordam beradi. Bugungi kunda ilm-fan har bir sohada, ayniqsa iqtisodiy,

ijtimoiy va madaniy jarayonlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanning taraqqiyotdagi o‘rnining jamiyatning barcha sohalariga ta’siri bilan belgilanadi.

### 1. Ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini

Ilm-fan jamiyat taraqqiyotining poydevori bo‘lib, u texnologik, iqtisodiy va madaniy o‘sishga turtki beradi. Quyidagi sohalarda ilm-fan katta ahamiyatga ega: Iqtisodiy rivojlanish: Ilm-fan orqali yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish metodlari kashf qilinadi, bu esa iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Innovatsiyalar va ilmiy yondashuvlar yangi ish o‘rinlarini yaratadi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Madaniy va ma’naviy rivojlanish: Ilm-fan jamiyatda yangi g‘oyalari va kreativ echimlar keltiradi. San’at, adabiyot va ta’lim sohalarida ilmiy yutuqlar madaniyatni boyitadi va jamiyatning ma’naviy darajasini oshiradi.

Ijtimoiy farovonlik: Ilm-fan ijtimoiy sohalarda yangi imkoniyatlar yaratadi. Sog‘liqni saqlash, ekologiya va ta’lim sohalarida ilm-fanning yutuqlari jamiyat farovonligini oshiradi.

### 2. Fanning maqsadlari

Ilm-fan bir nechta maqsadlarni amalga oshirishga intiladi:

Yangi bilimlar kashf qilish: Ilm-fanning asosiy maqsadi yangi bilimlarni o‘rganish va kashf qilishdir. Bu bilimlar insoniyatning hayotini yaxshilashga, tabiatni tushunishga va yangi texnologiyalar yaratishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni rivojlantirish: Ilm-fan orqali yangi texnologiyalar va metodlar ishlab chiqiladi. Bu innovatsiyalar jamiyatning turli sohalarini, jumladan, iqtisodiyotni va sanoatni rivojlantiradi.

Jamiyat uchun foydali yechimlarni taqdim etish: Ilm-fan ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal etishda yordam beradi. U insoniyatning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

### 3. Fanning vazifalari

Ilm-fan quyidagi vazifalarni bajaradi:

Bilimlarni kengaytirish: Ilm-fan tabiatni, jamiyatni va insonni o‘rganish orqali yangi bilimlar yaratadi. Bu bilimlar jamiyat taraqqiyoti uchun zarur.

Texnologik taraqqiyotga turtki berish: Ilm-fan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samarali qilishga yordam beradi. Yangi texnologiyalarni tatbiq etish, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

Ijtimoiy farovonlikni oshirish: Ilm-fan sog‘liqni saqlash, ta’lim, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda yangi yechimlar taklif qiladi. Bu jamiyatda yashash sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Ekologik muammolarni hal etish: Ilm-fan atrof-muhitni saqlash va barqaror rivojlanish uchun yechimlar ishlab chiqadi. Ilm-fanning bu vazifasi tabiat resurslarini tejash va ekologik muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ilm-fan jamiyat taraqqiyotida alohida o‘ringa ega bo‘lib, u har tomonlama rivojlanishga turtki beradi. Uning maqsadi va vazifalari insoniyatning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Ilm-fanning yangi bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy yechimlar yaratish orqali jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirishga hissa qo‘sishi zarur. Shuning uchun ilm-fan rivojlanishiga ko‘maklashish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash jamiyatning keljakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanimanligan adabiyotlar ro’yxati :**

1. Radjabov A. Ilmiy tadqiqot asoslari: o‘quv qo‘llanma /A.Radjabov;
2. O‘zbækistân Râspublikâsi Oliy va o‘rtâ màçsus tà’li 5-7-betlar
3. Azimov R.K., Xo‘jayev S.S. Texnik qurilmalarning yaratilish uslublari. – T., 1994